

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR, JISMONIY MADANIYAT VA SPORT
KAFEDRASI**

Dotsent Narziyeva Nargiza Norkuziyevnaning
**“MAXSUS FANLARNIN O‘QITISH JARAYONIDA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH” mavzusidagi**

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Mutaxassisliklar: Barcha ta‘lim mutaxassisliklari

Fan: MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI



Samarqand – 2023

Tuzuvchi: N.N.Narziyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti

Taqrizchilar: Zubaydullayev O'. – Toshkent Xalqaro Kimyo texnologiyalar universiteti Samarqand filiali Pedagogika, psixologiya kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Hasanova Z.D. – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Pedagogika, psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi p.f.b.f.d. (PhD)



**Mavzu: MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 80 daq.	Talabalar soni:
O'quv mashg'ulotining turi va shakli	Amaliy-yangi bilimlarni egallash va mustahkamlash bo'yicha o'quv mashg'uloti
O'quv mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyati. 2. Pedagogning maxsus fanlarni o'qitishda darsni tayyorlash va o'tkazishdagi pedagogik mahorati. 3. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda maxsus fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyati, pedagogning maxsus fanlarni o'qitishda darsni tayyorlash va o'tkazishdagi pedagogik mahorati, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqidagi bilimlarni shakllantirish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
<ul style="list-style-type: none"> – ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berish; – pedagogning maxsus fanlarni o'qitishda darsni tayyorlash va o'tkazishdagi pedagogik mahorati haqida tushuncha berish. 	<ul style="list-style-type: none"> – ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi; – pedagogning maxsus fanlarni o'qitishda darsni tayyorlash va o'tkazishdagi pedagogik mahorati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi
O'qitish usullari	ko'rsatma berish, taqdimot, manbalar bilan ishlash, Aqliy hujum, Kichik guruhlarda ishlash, "Demokratik munozara", "B,B,B", "Xotira mashqi" usullari.
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli	Ommaviy, yakka tartibli
O'qitish vositalari	O'quv-uslubiy majmua, darslik, tarqatma materiallar, yozuv taxtasi, kompyuter, proyektor.

O‘qitish shart sharoitlari	Guruh bilan ishlashga qulay bo‘lgan jihozlangan xona
Qaytar aloqaning usul va vositalari	Taqdimot, og‘zaki so‘rov, tezkor savol-javob, misol va mashqlar, test.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daqiqa)	<p>Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash.</p> <p>1.1. Tayanch bilimlarni faollashtiruvchi Aqliy hujum va “Akademik munozara” usuli bilan dars boshlaydi.</p> <p>1.2. Yangi mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni va adabiyotlar ro‘yxatini aytadi. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quv ishlarni baholash mezonlarini tanishtiradi.</p> <p>Uyga vazifani so‘rash:</p> <p>1.3. Talabalar bilimini o‘tilgan mavzu bo‘yicha “B,B,B”, Kichik guruhlarda ishlash usullari bilan tekshiradi.</p>	<p>Javob beradilar</p> <p>Tinglaydilar va javob beradilar</p> <p>Tinglaydilar va yozib oladilar</p> <p>Aniqlashtiradilar va savol beradilar</p> <p>Baholash mezonlari bilan tanishtiradilar</p> <p>Javob beradilar, bajaradilar</p>
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>Yangi mavzuni o‘tish.</p> <p>2.1. Mavzu bo‘yicha talabalar bilimini faollashtirish uchun suhbat o‘tkazadi.</p> <p>2.2. Yangi mavzu mazmuni va mohiyatni ochib beradigan slaydlarni ko‘rsatadi va tushuntiradi.</p> <p>2.3. Mavzuning har bir rejasi bo‘yicha asosiy tushuncha va jihatlariga e‘tibor qaratadi.</p> <p>Mavzuni mustahkamlash.</p> <p>2.4. O‘qituvchi talabalarga o‘quv topshiriqlarini beradi, yo‘riqnomalari bilan tanishtiradi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi, talabalar ishini kuzatadi, javoblarini tinglaydi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar, sharhlaydilar</p> <p>Yozadilar</p> <p>Mavzuni tinglaydilar</p> <p>Mavzuni tinglaydilar</p> <p>Mustaqil ishlaydilar</p> <p>Topshiriqni bajaradilar, test savollarini bajaradilar</p>

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	Dars yakuni 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi. 3.2. Uyga vazifa berish. “Xotira mashqi” usuli orqali topshiriqlar beradi.	Tushunib oladilar, baholar bilan tanishadilar, topshiriqlarni yozib oladilar
---	---	--



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: Fan va texnologiya.2007.
2. Omonov H.T., Xattabov M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2016.
3. Omonov X, Xo`jayev N, Madyareva S, Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.-T.:Iqtisod-moliya, 2009.

UYGA VAZIFANI TEKSHIRISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

“Akademik munozara” metodi orqali uy vazifasini so‘rash.



MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING AUDITORIYADAN TASHQARI SHAKLLARI

Mustaqil ta'limda qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biri **kitob ustida ishlashdir**. Bu metodning afzalligi shundaki, u kitobxonga o'quv axborotini uning o'ziga xos sur'atda va qulay vaqtda olishini ta'minlaydi. o'quv adabiyotlari bilan ishlash metodlariga xos funksiyalarni barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishlashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki paragraflarni sinchiklab o'qish, berilgan materialni o'rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu metodning qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modifikatsiyalarda qo'llash mumkin.

Amerikalik pedagoglar tomonidan talaba, talabalarni kitob ustida ishlashlarini faollashtirish maqsadida **“Muallifdan so‘rang”** metodi ishlab chiqilgan. Bu metodni qo'llab darsni boshlashdan oldin o'qituvchi buyuk faylasuflardan Suqrotning yozma nutq haqidagi shikoyatini boshqacha tarzda ifodalab, yozilgan matn doimo tushunarli bo'lavermaydi. Uni tushunmagani uchun talaba aybli emas. Odatda, gapirayotgan kishining nutqida tushunilmagan gapni, so'zni so'zlovchiga savol berib, uni kengroq tushuntirib berishini so'raymiz. Yozma matn, ya'ni kitob ma'nosi tushunarli bo'lmasa, uni tushuntirib berishlarini so'rash mumkin emas. Faqat bunda uni kursdoshlari tushuntirib berishi yoki o'zi harakat qilishi mumkin, deya tushuntiradi.

Talabalar kitob yoki maqola o'qir, ekan, unga olgan bilimi yoki undagi berilgan axborotdan joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat topshirishda yoki ball to'plashda qanday foydalansam bo'ladi, degan nuqtayi nazardan qaraydi. Kasb egasi bilimi jihatidan undan ustun bo'lmasada, mutaxassisligi bo'yicha qo'lga kitob tushsa, eng avvalo, undan ish jarayonida qanday foydalanish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Akademik va amaliy bilimning asosiy farqi ham ana shunda.

Shuning uchun ham hozirda o'quv yurtlarini bitiruvchilarni egallayotgan kasblari bo'yicha amaliyot bilan bog'lashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi dars o'tish metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Kitob o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki talabalarning o'zlari tanlashlari mumkin. o'qituvchi talabalarning hikoyasini tinglab yoki esselarini o'qib, uni - naqadar real hayot bilan bog'langanligi, fikrning originalligi, bayon qilinishiga qarab ball berishi lozim.

“Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim (B.B.B.)”

Bu metod talabalarni kitob, ilmiy maqolalarni o'qishga, bilmaganlarini o'rganishga harakat qilishlariga yordam beradi. Barcha talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi.

Bu metodni qo'llashda o'qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida organishni aniqlaydi. O'rganilgan mavzu bo'yicha savollar va ularning javoblarini, o'qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma'ruza matni, yangi mavzu bo'yicha bilish lozim bo'lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi.

Talabalarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo'yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni talabalar bilganini ko'rsatishi uchun jadval chiziladi.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabaning mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

axborot manbalaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmi adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
 - electron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

Oliy o'quv yurtlarida haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22—24 soat atrofida bo'ladi.

TMI TIJ bo'yicha olib boriladigan ilmiy anjumanga maqola tayyorlash, mavzular bo'yicha jadvallar, slaydlar, referativ ma'ro'za, vaziyatli masalalar majmuasini ishlab chiqish va boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin.


Kurs ishlarini bajarish talabalarni mustaqil fikrlashiga, olgan ko'nikmalarini mukammallashtirishga yordam beradi. Uning asosida ilmiy tekshirish ishlarini elementlari mavjud bo'lib, bu esa o'z navbatida kafedrada o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga va rivojlantirishga yordam beradi.



2-topshiriq. Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim metodi orqali talabalar bilimni baholash

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM

Yangi mavzuni tushuntirish uchun slaydli taqdimot



- Axborot texnologiyasining mazmunini quyidagi oddiy bir misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Siz biror ma'lumot haqida boshqa bir viloyat (respublika, qit'a)da yashovchi o'rtog'ingiz bilan fikr almashmoqchisiz, deylik. Buni turli yo'llar orqali amalga oshirishingiz mumkin. Siz o'rtog'ingizga o'z fikringizni (o'z navbatida, o'rtog'ingiz ham sizga javoban) quyidagi usullar orqali yetkazishingiz mumkin:
 - 1) aloqa bo'limi orqali (yozma ravishda);
 - 2) telefon tarmoqlari orqali (og'zaki);
 - 3) zamonaviy telekommunikatsiya vositalari orqali.


- Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Bu usullardan foydalanish natijalari turlicha bo'ladi va natijalarga qarab, qaysi usuldan foydalanishni o'zingiz belgilab olasiz.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida, albatta, biror yumushni bajarishdan oldin uni amalga oshirish uchun ketadigan mablag'larni chamalab ko'rishingiz lozim, aks holda uni amalga oshira olmasligingiz mumkin. Albatta, yuqorida ko'rsatilgan usullardan foydalanish uzatilayotgan axborot mazmuni va mohiyatiga bog'liq.
- Pirovardida, o'zingiz uchun iqtisodiy jihatdan eng arzon (hech bo'lmaganda arzonrog'i) va sifati yuqori bo'lgan usulni belgilab olasiz.

- **Axborot manbalari va iste'molchilarning har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keladi:**
 - **Belgili** – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar. Bular biror voqea-xodisalar haqidagi axborotlarni uzatishda foydalaniladi.
 - **Matnli** – xarf, raqam va belgilar to'plamidan tarkib topgan ma'lum ma'noni anglatuvchi so'zlardan iborat axborot.
 - **Grafik** – tasvirlardan iborat bo'lgan tasavvur ko'rinishidagi axborotlar.



Tarqalgan maqola

Alisher Navoiy (1441, fev. — 1501 yan.) — slug' o'zbek shairi, mutafakkiri va dalarat arbobi. G'arbda chig'itay adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda erizomi millati va d-dins (din va millatning nizomi) unvoni bilan slug'lanadi.



Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanidan ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, internet, intranet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar kiradi.



Masofaviy ta'lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuterta'limiy mahsulotlarni, multimedia, radio, televidenie va b.) tarqatish va yetkazib berishdai yordamida ta'lim an'anaviy hamda xizmatlarini innovatsion ko'rsatish shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim. Masofaviy ta'lim ta'lim oluvchi va ta'lim xizmatlarini tashkil etuvchi sub'ektlar o'rtasida qaytar aloqani yuzaga keltiradi. Ya'ni, ta'lim oluvchilar o'zlari uchun qulay sharoit, vaqtda faks, pochta yoki kompyuter (elektron pochta) yordamida o'qituvchilarga nazorat-sinov ishlarining ishlanmalari, loyihalarni yuboradi. Tekshirilgan nazorat ishlari "qaytar aloqa" tamoyiliga muvofiq ta'lim oluvchilarga qaytariladi. Buning natijasida shaxslararo munosabat – "*subekt-subekt*" aloqasi o'rnatiladi.

Masofaviy ta'limni tashkil etisha o'qituvchilarning faoliyati faqatgina o'quv axborotlarini uzatish bilan cheklanmaydi. Shu sababli bu turdagi ta'limni tashkil etishga bir necha mutaxassis jalb qilinai. Ular o'z vazifalariga ko'ra turlicha nomlanadi.

Xususan:

O'qituvchi – masofaviy ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalarining muallifi.

Axborot texnologiyalari — bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, o'zlash usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir. Zamonaviy axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etilishi ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitofon bilan ta'minlangan auditoriyalarda dars o'tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Avniqsa, o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

* talabalarga o'rganayotgan mavzusi, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;

* o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;

* talaba, talabalar nixohish, talab, ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirish;

* o'qituvchining talabalarining bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish;

* talabalarni o'zlashtirishi bo'yicha ob'yektiv hisobot, to'la va o'zluksiz uazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Moderator – masofaviy ta’lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbatlari va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog (u muloqot jarayonining to’g’ri tashkil etilishini ta’minlaydi, bildirilayotgan fikrlarni umumlashtiradi, zarur bo’lganda ularni to’g’rilaydi, ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilish faoliyatlarini faollashtiradi).

Tyutor (lot. “tutorem”) – o’quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma’ruza o’qituvchisi bilan talaba o’rtasida ta’limiy aloqani o’rnatuvchi ustoz, murabbiy.

Ахборотнинг жамиятда ва кундалик хаётимизда тутган ўрни.

- Жамиятни ахборотлаштириш: меҳнат, илмий тадқиқот, лойиҳа, ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш, аҳолига хизмат кўрсатишни автоматлаштириш, ташкилий-иқтисодий бошқаришни автоматлаштириш, таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимини ахборотлаштириш каби соҳаларни ўз ичига олади.
- Жамиятда ахборот ҳам билим манбаи ҳам энг асосий мулоқот воситаси бўлиб ҳисобланади. Жамиятни ахборотлаштиришда радио, телевидение, оммавий-ахборот воситалари ва Интернет тизимининг аҳамияти жуда юқоридир. Ҳар ким ҳар доим бирор ишни бажариш ёки бирор мақсадга эришиш учун ахборотдан фойдаланади. Ҳар бир инсон об-ҳаво прогнозини, транспорт воситалари қатнови жадвалини, банк ва бизнес маълумотларини ҳамда кундалик янгиликлардан хабардор бўлишга муҳтождир. Агарда инсон кундалик ахборотлар ва янгиликлардан хабардор бўлмас экан у жамиятдан узилиб қолиши муқаррар.



3-topshiriq. “Xotira mashqi” usulidan foydalanib mutaxassislik fanlaridan terminlarni aytib musobaqalashish.

UYGA VAZIFA UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. Maxsus fanlarni o’qitish jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Pedagogning maxsus fanlarni o’qitishda darsni tayyorlash va o’tkazish texnologik xaritasini tuzish.
3. Ma’ruza, amaliy mashg’ulotlar ishlanmasini axborot texnologiyalardan foydalanib tayyorlab kelish

O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari

Maksimal ball	Nazorat qilinadigan va baholanadigan ish turlari	Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar
5	Mavzu bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik	Asosiy tushunchalar, ta'riflar, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda qo'llay olish
5	Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish
5	Nazorat ishlarini bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish
5	Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati	Berilgan topshiriqni to'g'ri va to'liq bajarish, mustaqil mulohaza yurita olish, bilimlarni amalda qo'llay olish, masalaga ijodiy yondashish, mohiyatini tushunish va aytib bera olish